



Dilnoza SULTANOVA,
Nordic xalqaro universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: sultanova@nordicuniversity.org

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, PhD X.Bakirova taqrizi asosida

MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA TIL O'QITISH MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada masofaviy ta'lim sharoitida chet tillarini o'qitish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish samaradorligi, talabalar faolligi, motivatsiyasi va o'qituvchi-talaba muloqoti masalalari o'rganildi. Olingan natijalar asosida masofaviy ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Masofaviy ta'lim, onlayn o'qitish, chet tili, metodika, raqamli texnologiyalar.

PROBLEMS OF TEACHING LANGUAGES IN DISTANCE LEARNING CONDITIONS AND THEIR SOLUTIONS

Annotation

This article analyzes the main problems that arise in the process of teaching foreign languages in distance learning conditions, as well as ways to overcome them. The study examines the effectiveness of using online learning platforms, students' engagement and motivation, and issues of teacher-student interaction. Based on the obtained results, practical recommendations aimed at improving the quality of distance education were developed.

Key words: Distance education, online learning, foreign language, methodology, digital technologies.

ПРОБЛЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКАМ В УСЛОВИЯХ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Аннотация

В данной статье анализируются основные проблемы, возникающие в процессе обучения иностранным языкам в условиях дистанционного обучения, а также пути их преодоления. В ходе исследования были изучены эффективность использования онлайн-образовательных платформ, активность и мотивация студентов, а также вопросы взаимодействия между преподавателем и студентами. На основе полученных результатов были разработаны практические рекомендации, направленные на повышение качества дистанционного образования.

Ключевые слова: Дистанционное обучение, онлайн-обучение, иностранный язык, методика, цифровые технологии.

Kirish. So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimida masofaviy o'qitish shaklining keng qo'llanilishiga sabab bo'ldi. Zamonaviy raqamli platformalar, mobil ilovalar va virtual ta'lim muhitlari orqali bilim berish jarayoni an'anaviy ta'lim shakllarini to'ldiruvchi muhim vositaga aylandi. Ayniqsa, global pandemiya davrida ta'lim muassasalarining faoliyati masofaviy shaklga o'tishi natijasida onlayn ta'lim asosiy o'qitish shakliga aylandi. Bu jarayon ta'lim tizimining barcha yo'nalishlariga, jumladan, chet tillarini o'qitish metodikasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Chet tillarini o'rganish jarayoni, avvalo, muloqot, tinglab tushunish, talaffuz va amaliy mashqlar orqali shakllanadi. An'anaviy ta'limda bu jarayonlar bevosita o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi jonli muloqot asosida amalga oshiriladi. Masofaviy ta'lim sharoitida esa ushbu jarayonlar asosan raqamli texnologiyalar orqali tashkil etiladi. Bu esa o'qitish metodlarini qayta ko'rib chiqish, yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishni taqozo etadi.

Masofaviy ta'lim o'quvchilarga qulaylik yaratish, vaqt va makon chegaralarini kamaytirish, mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish kabi afzalliklarga ega bo'lsa-da, til o'rganish jarayonida qator muammolarni ham yuzaga keltirdi. Jumladan, jonli muloqotning cheklanishi, texnik nosozliklar, internet tezligining pastligi, talabalar faolligining pasayishi, motivatsiyaning susayishi va bilimlarni nazorat qilishning murakkablashuvi kabi holatlar keng kuzatilmoqda.

Bu muammolar o'quv jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuningdek, masofaviy ta'lim sharoitida o'qituvchilardan nafaqat fan bo'yicha bilim, balki raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, interaktiv metodlarni qo'llash va virtual muhitda talabalar bilan samarali muloqot o'rnatish kabi ko'nikmalar ham talab etiladi. Biroq barcha o'qituvchilar ham ushbu jarayonga bir xil darajada tayyor emasligi muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi masofaviy ta'lim sharoitida til o'qitishdagi asosiy muammolarni aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish hamda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan samarali pedagogik va metodik yechimlarni taklif etishdan iborat. Tadqiqot natijalari masofaviy ta'lim jarayonini takomillashtirish hamda chet tillarini o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda masofaviy ta'lim sharoitida chet tillarini o'qitish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va tahlil qilish maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, dastlab mavzu doirasida mavjud ilmiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar hamda metodik qo'llanmalar tahlil qilindi. Ushbu tahlil orqali masofaviy ta'lim va til o'qitish masalalariga oid nazariy asoslar o'rganildi hamda tadqiqotning konseptual yo'nalishi belgilab olindi.

Tadqiqot jarayonida empirik ma'lumotlar to'plash maqsadida so'rovnomalar usulidan foydalanildi. So'rovnoma 50 nafar talaba va 10 nafar chet tili o'qituvchisi ishtirokida o'tkazildi. So'rovnoma savollari masofaviy ta'lim jarayonida

uchrayotgan muammolar, onlayn darslarning samaradorligi, texnik vositalarning mavjudligi va sifati, talabalar faolligi hamda motivatsiya darajasini aniqlashga qaratildi. Olingan javoblar orqali ta'lim jarayonining amaldagi holati tahlil qilindi.

Shuningdek, kuzatuv metodi yordamida onlayn dars jarayonlari bevosita o'rganildi. Xususan, Zoom va Google Meyet platformalari orqali olib borilgan mashg'ulotlar kuzatilib, darslarning tashkil etilishi, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi muloqot, interaktiv metodlardan foydalanish darajasi hamda talabalar ishtiroki tahlil qilindi. Kuzatuv natijalari masofaviy ta'limning amaliy jihatlarini chuqurroq o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida taqqoslash usuli ham qo'llanildi. Ushbu metod orqali an'anaviy va masofaviy ta'lim shakllarida chet tillarini o'qitish jarayonlari solishtirilib, ularning afzallik va kamchiliklari aniqlab olindi. Bu esa masofaviy ta'limning samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va ilmiy asosda tahlil qilish maqsadida statistik tahlil metodidan foydalanildi. So'rovnom natijalari qayta ishlanib, foiz ko'rsatkichlari, diagrammalar va umumiy xulosalar shakllantirildi. Statistik tahlil natijalari tadqiqotda bildirilgan fikrlarning ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi.

Yuqorida qayd etilgan metodlar uyg'un holda qo'llanilishi natijasida masofaviy ta'lim sharoitida chet tillarini o'qitish jarayonining holati har tomonlama o'rganildi hamda tadqiqot maqsadiga mos ilmiy xulosalar chiqarildi.

Natijalar. O'tkazilgan tadqiqot natijalari masofaviy ta'lim sharoitida chet tillarini o'qitish jarayonida qator muammolar mavjudligini ko'rsatdi. So'rovnom, kuzatuv va statistik tahlil natijalari asosida ushbu muammolar bir necha asosiy yo'nalishlar bo'yicha aniqlanib, tahlil qilindi.

Birinchidan, tadqiqot davomida texnik muammolar eng dolzarb masalalardan biri ekanligi aniqlandi. Internet tezligining pastligi, elektr ta'minotidagi uzilishlar, shuningdek, zamonaviy texnik qurilmalarning yetishmasligi onlayn darslarning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ayrim hollarda talabalar darslarga kech ulanib qolishi, videotasvir va ovoz uzilishi sababli mashg'ulot jarayonida faol ishtirok eta olmasligi kuzatildi. Bu holatlar ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlashda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

Ikkinchidan, masofaviy ta'lim sharoitida muloqotning cheklanishi muammosi aniqlandi. An'anaviy ta'limda o'qituvchi va talabalar o'rtasida yuzma-yuz muloqot mavjud bo'lib, bu til o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Onlayn ta'limda esa bunday bevosita aloqa cheklangan bo'lib, talabalar nutqiy faoliyatda kamroq ishtirok etishi, savol-javoblarda passivlik ko'rsatishi hamda og'zaki nutq ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmasligi kuzatildi. Natijada, tilni amaliy qo'llash imkoniyatlari kamaydi.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari talabalarning motivatsiyasi pasayganligini ko'rsatdi. Masofaviy ta'lim sharoitida talabalar mustaqil ishlashga bo'lgan qiziqishining kamaygani, darslarga muntazam tayyorgarlik ko'rish darajasining pasaygani aniqlandi. Uy sharoitida o'qish jarayonining tashkil etilishi, tashqi omillarning ko'pligi hamda nazoratning cheklanganligi talabalarning o'qishga bo'lgan munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu esa ta'lim samaradorligining pasayishiga olib keldi.

To'rtinchidan, bilimlarni nazorat qilish va baholash jarayonida ham muayyan kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Onlayn topshiriqlarni bajarishda ayrim talabalar mustaqil ishlash o'rniga turli manbalardan foydalanishi, boshqa shaxslarning yordami bilan topshiriqlarni bajarishi holatlari kuzatildi. Bu esa akademik halollik masalalarining dolzarbligini oshirdi hamda baholashning obyektivligini pasaytirdi.

So'rovnom natijalariga ko'ra, talabalarning 62 foizi onlayn darslar jarayonida diqqatni jamlash qiyinligini bildirgan bo'lsa, 48 foizi texnik muammolarga tez-tez duch kelganini ta'kidlagan. Bundan tashqari, respondentlarning muayyan qismi masofaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan bevosita muloqot yetarli emasligini ham qayd etgan.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari masofaviy ta'lim sharoitida chet tillarini o'qitish jarayoni muayyan qulayliklarga ega bo'lishiga qaramasdan, bir qator tashkiliy, texnik va pedagogik muammolar bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Ushbu muammolarni bartaraf etish ta'lim sifatini oshirishda muhim hisoblanadi.

Olingan tadqiqot natijalari masofaviy ta'lim sharoitida chet tillarini o'qitish jarayoni an'anaviy ta'lim shakliga nisbatan bir qator muayyan kamchiliklarga ega ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, til o'rganish jarayonida muhim hisoblangan kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda jonli muloqotning ahamiyati yuqori bo'lib qolmoqda. An'anaviy darslarda talabalar o'qituvchi va tengdoshlari bilan bevosita muloqotda bo'lish orqali o'z nutqini rivojlantirsa, masofaviy ta'limda bu imkoniyatlar ma'lum darajada cheklanadi. Natijada, og'zaki nutq, talaffuz va muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni sekinlashadi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, masofaviy ta'limda talabalar ko'pincha passiv tinglovchi rolda qolib ketmoqda. Kamera va mikrofonlardan kam foydalanish, dars jarayonida faol ishtirok etmaslik hamda individual muloqotning cheklanganligi bu holatni yanada kuchaytiradi. Bu esa talabalar nutqiy faolligining pasayishiga va o'rganilayotgan tilni amaliy qo'llash imkoniyatlarining cheklanishiga olib keladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari masofaviy ta'limni to'g'ri tashkil etish va zamonaviy raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish orqali mavjud muammolarni ma'lum darajada kamaytirish imkonligini ham ko'rsatdi. Xususan, interaktiv platformalar, virtual muhokamalar, onlayn guruh ishlari, rolli o'yinlar hamda multimedia resurslaridan foydalanish dars jarayonini jonlantirishga xizmat qiladi. Bunday metodlar talabalarni faol ishtirok etishga undaydi, mustaqil fikrlash va nutqiy faollikni rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar orqali individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyati ham kengayadi. Masalan, video darslar, audio materiallar, interaktiv mashqlar va onlayn testlar yordamida talabalar o'z bilim darajasiga mos ravishda mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi mumkin. Bu esa ta'lim jarayonining moslashuvchanligini oshiradi va o'quv materialining samarali o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi masofaviy ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligini ham tasdiqladi. Texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan, onlayn platformalardan samarali foydalana oladigan pedagoglar masofaviy ta'limni yuqori saviyada tashkil eta oladi. Aksincha, raqamli ko'nikmalari yetarli bo'lmagan o'qituvchilar uchun onlayn darslarni samarali olib borish qiyinchilik tug'diradi.

Shu sababli, masofaviy ta'lim sifatini oshirish uchun o'qituvchilarning malakasini muntazam ravishda oshirish, raqamli pedagogika bo'yicha treninglar tashkil etish hamda ilg'or tajribalarni ommalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon pedagoglarning innovatsion metodlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi va ta'lim sifatining barqarorligini ta'minlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, masofaviy ta'lim an'anaviy ta'limni to'liq almashtira olmasligi mumkin, biroq u bilan uyg'un holda qo'llanilganda yuqori samaradorlikka erishish mumkin. An'anaviy va masofaviy ta'lim shakllarini uyg'unlashtirgan

holda tashkil etilgan ta'lim modeli chet tillarini o'qitishda eng maqbul yechimlardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijalari masofaviy ta'lim sharoitida chet tillarini o'qitish jarayoni murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanligini ko'rsatdi. Ushbu jarayon texnik, pedagogik, psixologik hamda tashkiliy omillar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning har biri ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar masofaviy ta'limning rivojlanishi bilan bir qatorda uni takomillashtirish zarurligini ham namoyon etdi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, masofaviy ta'lim sharoitida til o'qitish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni to'g'ri metodik yondashuv va zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida samarali hal etish mumkin. Buning uchun, avvalo, ta'lim jarayonini puxta rejalashtirish, o'qitish metodlarini zamon talablariga moslashtirish hamda talabalar ehtiyojlarini inobatga olish muhim hisoblanadi.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, texnik infratuzilmani yaxshilash masofaviy ta'limning samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biridir. Barqaror internet aloqasi, zamonaviy qurilmalar va ishonchli onlayn platformalar ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Shuningdek, interaktiv metodlardan foydalanish, jumladan, virtual muhokamalar, guruhli ishlash, onlayn testlar va multimedia

materiallardan foydalanish talabalar faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, talabalar motivatsiyasini oshirish masofaviy ta'limning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Rag'batlantiruvchi topshiriqlar, individual yondashuv, ijobiy baholash tizimi hamda muntazam fikr-mulohazalar berish orqali talabalarni o'qishga bo'lgan qiziqishini mustahkamlash mumkin. Shu bilan birga, doimiy monitoring va nazorat tizimini yo'lga qo'yish bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirish hamda akademik halollikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilarning kasbiy va raqamli kompetensiyasini oshirish ham masofaviy ta'lim sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, onlayn platformalar va innovatsion metodlardan samarali foydalanishni o'rganish o'qituvchilarga ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari masofaviy ta'lim sharoitida chet tillarini o'qitishni takomillashtirish uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu xulosalar va tavsiyalar ta'lim muassasalari, o'qituvchilar hamda ta'lim sohasidagi mutaxassislar tomonidan amaliyotda qo'llanilishi natijasida masofaviy ta'lim sifatini oshirishga va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Anderson T., Elloumi F. Theory and Practice of Online Learning. Athabasca: Athabasca University, 2004. 421 p.
2. Bates A. W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Vancouver: BCcampus, 2019. 512 p.
3. Bonk C. J., Graham C. R. The Handbook of Blended Learning. San Francisco: Pfeiffer, 2006. 624 p.
4. G'ofurov B. B. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O'qituvchi, 2018. 256 b.
5. Karimov A. A. Masofaviy ta'lim metodikasi asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. 198 b.
6. Moore M. G., Kearsley G. Distance Education: A Systems View of Online Learning. Belmont: Wadsworth, 2012. 432 p.
7. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 2014. 410 p.
8. Roblyer M. D., Hughes J. E. Integrating Educational Technology into Teaching. Boston: Pearson, 2019. 480 p.
9. Xoliqov A. X. Chet tillarni o'qitish metodikasi. Toshkent: Akademiashr, 2017. 220 b.
10. Zhang D., Zhao J. L., Zhou L., Nunamaker J. F. Can E-learning Replace Classroom Learning? // Communications of the ACM. 2004. Vol. 47, No. 5. P. 75–79.
11. UNESCO. Distance Learning Strategies in Response to COVID-19. Paris: UNESCO, 2020. 56 p.
12. Warschauer M. Technology and Language Learning. Oxford: Oxford University Press, 2011. 380 p.